



ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE COMBAT AND PROFESSIONAL TRAINING OF MODERN PERSONNEL: FOREIGN EXPERIENCE AND SOLUTIONS

Umurzakov Bakhtiyor Bokhodirovich

Senior Instructor of the Combat Training Cycle of the Institute of Increasing qualifications of the Ministry of Internal Affairs,

Lieutenant colonel

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474808>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Law enforcement agencies, personnel training, biofeedback technology, ICAT program, psychophysiological resilience, communication competence, combat training, foreign experience, innovative education, professional skills.

ABSTRACT

This scientific article explores the organizational and methodological foundations for introducing modern approaches to the system of combat and professional training of law enforcement officers, analyzing both international experience and national practice. The study examines advanced training models implemented in the police systems of the USA, Iceland, Finland, and the Netherlands, with particular attention to the effectiveness of biofeedback technology and the ICAT (Integrating Communications, Assessment, and Tactics) program. The article also evaluates the possibilities of adapting these approaches to Uzbekistan's law enforcement training system and substantiates their importance in enhancing psychophysiological resilience, communicative competence, and professional proficiency of police officers.

ZAMONAVIY KADRLARNI JANGOVAR VA KASBIY TAYYORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI: XORIJIY TAJRIBA VA YECHIMLAR

Umurzakov Baxtiyor Boxodirovich

IIV Malaka oshirish instituti, Jangovar tayyorgarlik sikli
katta o'qituvchisi, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474808>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Ichki ishlar organlari, kadrlar tayyorlash, biofidbek texnologiyasi, ICAT dasturi, psixofiziologik barqarorlik, muloqot kompetensiyasi,

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada ichki ishlar organlari xodimlarini jangovar va kasbiy tayyorlash tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishning tashkiliy-uslubiy asoslari, xorijiy tajriba va milliy amaliyot o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida AQSh, Islandiya, Finlyandiya va Niderlandiya politsiya tizimlarida qo'llanilayotgan ilg'or o'quv modellar, xususan, biofidbek texnologiyasi hamda ICAT dasturining



jangovar tayyorgarlik, xorij tajribasi, innovatsion o'qitish, kasbiy malaka.

mazmuni va samaradorligi tahlil qilingan. Ilmiy maqolada ushbu yondashuvlarni O'zbekiston ichki ishlar organlari kadrlar tayyorlash tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilib, ularning psixofiziologik barqarorlikni, kommunikativ kompetensiyani hamda kasbiy yetuklikni oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Bugungi kunda mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, keyingi yillarda orttirgan tajribamizdan, ilg'or xorijiy yutuqlardan foydalangan holda, ichki ishlar sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish eng muhim vazifalardan biridir.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy faktorlaridan biri hisoblangan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ishini yangi innovatsiyalar asosida tashkil qilish muhim vazifa hisoblanadi. Insoniyat sivilizatsiyasining yangi bosqichga ko'tarilishi fan va texnika sohasidagi erishilgan yutuqlar bevosita inson omiliga bog'liq bo'lgan jarayondir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, taraqqiyotni asosiy harakatlantiruvchi omillardan biri yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimining yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Raqobatbardosh kadrlarning innovatsion fikrlarini jamiyatning barcha jabhalarida o'z vaqtida qo'llash davlat, jamiyat hamda shaxsning faol va samarali taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Globalashuv sharoitida ichki ishlar organlarining samarali faoliyati, eng avvalo, intellektual salohiyatga ega, yuksak jangovar, kasbiy va ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan xodimlarni tanlab olish va ularni to'g'ri boshqarish tizimiga bog'liqdir. Bugungi kunda jinoyatchilikning murakkablashuvi ichki ishlar tizimidan zamonaviy fikrlaydigan, tahliliy tafakkurga ega, kerakli vaqtda tezkor qaror qabul qila oladigan va o'zining jangovar va kasbiy sifatlarini mohirona qo'llay oladigan kadrlarni talab etmoqda. Shu bois, intellektual salohiyatli xodimlarni tanlash jarayonini takomillashtirish ichki ishlar organlarining boshqaruv tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Darhaqiqat, 2022-yil 28-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonidagi 17-maqсад "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish"[1] deb atalgan va "ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish" kabi bir qator vazifalar belgilangan. Albatta, bunday vazifalarni bajarishda ichki ishlar organi xodimi o'zining kasbiy, jangovar, intellektual jihatlarini muntazam takomillashtirib borishi lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlari xalqning ishonchli himoyachisi sifatida namoyon bo'lishi nafaqat ularning nazariy bilim darajasi, balki zamonaviy texnika va texnologiyalarni amaliy qo'llash ko'nikmalariga ham bog'liq. Ichki ishlar organlarida



boshqaruv tizimiga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli boshqaruv platformalarini izchil joriy etish xodimlarning kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Natijada, jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklarni aniqlash va fuqarolarga tezkor yordam ko'rsatish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, intellektual salohiyatli xodimlarni tanlash va ulardan unumli foydalanish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib borilishi zarur. Bu borada xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar tizimida inson resurslarini rivojlantirishga doir kompleks dasturlarni amalga oshirish, xodimlarni muntazam ravishda malaka oshirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni motivatsion mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ana shundagina ichki ishlar organlari zamonaviy xavfsizlik muammolariga mos ravishda faoliyat yurituvchi, professional va intellektual jihatdan yetuk kadrlar zaxirasiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi zamonda ichki ishlar (politsiya) faoliyatida kadrlar tayyorlash tizimi jadal o'zgarishlarga duch kelmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari sharoitida ichki ishlar organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligi, kasbiy kompetensiyasi hamda psixologik barqarorligini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Masalan, AQSH (Luizvil, Kentukki, Mayami), Islandiya, Finlyandiya [2], Niderlandiya [3] tajribalarida kadrlarni tayyorlashda maxsus dasturlardan, integratsiyalashgan o'quv-modullar, raqamli simulyatorlar, ko'p bosqichli baholash tizimlari hamda motivatsion treninglardan keng foydalaniladi. Bu yondashuvlar shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshirish bilan birga, jamoaviy harakat va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda ichki ishlar organlari tizimini modernizatsiya qilish, kadrlarning jangovar va kasbiy sifatlarini takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajribani tizimli o'rganish orqali shu ma'lum bo'ldi-ki, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimini xorijning ilg'or tajribalari orqali to'ldirib borish davr talabidir. Shu bois, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili bu yo'nalishda tashkiliy-uslubiy asoslarni yanada chuqur tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolani yaratishda *kompleks tahliliy yondashuv, tizimli tahlil va solishtirma tahlil* metodlaridan foydalanildi. Dastlab, xorijiy va O'zbekiston tajribasiga bog'liq bo'lgan manbalar asosida jangovar va kasbiy tayyorgarlik tizimining ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi, keyinchalik, AQSh, Islandiya kabi davlatlarning politsiya tizimlari solishtirildi, so'ngra, O'zbekistonda ushbu sohadagi mavjud holat hamda ilg'or xorijiy tajribalarning O'zbekiston ichki ishlar organlari amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari tizimli tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ilg'or xalqaro tajriba asosida davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [4]. Albatta, bu jarayon ichki ishlar organlarida ham o'z aksini topmoqda. O'zbekiston ichki ishlar organlari o'z



vakolatlari doirasida talab darajasida faoliyat yuritmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin, bu darajani ushlab turish uchun sohadagi mavjud to'siqlarni aniqlash, xalqaro tarjibaning eng samarali jihatlarini muntazam ravishda o'rganib borish va sohaga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish hozirgi zamon talabidir. Ichki ishlar organlarida kadrlarning kompetentligi va professionalligi doimo e'tibor markazida turuvchi masala hisoblanadi. Jumladan, 2017-yil 29-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3413-son Farmoni ham aynan, ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash va xizmatni tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasida tezkorlikni, jinoyatlar haqidagi xabarlarini o'z vaqtida hisobga olish va ko'rib chiqishni ta'minlaydigan, amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida ichki ishlar organlarining mavjud kuch va vositalarini boshqarish hamda hamkorlikni tashkil etishning samarali tizimini yaratish, ichki ishlar organlarining barqaror professional kadrlar tarkibini shakllantirish, kadrlar qo'nimsizligini pasaytirish, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini rag'batlantirish, shuningdek shaxsiy tarkibni uning kasbiy malakasi, shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarini inobatga olgan holda lavozimlarga optimal taqsimlash [5] kabi vazifalar yuklatilgan. Hozirda ham ichki ishlar organlari faoliyatida ushbu yo'nalishda islohotlar amalga oshirilishi davom ettirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda, rossiyalik olim A.A. Kobozev ichki ishlar organlaridagi kadr tayyorlash tizimini tashkil etish va qonuniy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini bildirib o'tadi. Ya'ni, kadrlar tayyorlash tizimi tashkiliy va huquqiy yo'nalishlarda o'zaro uzviylikni ta'minlash orqali samaradorlikka etishishni nazarda tutadi [6].

Rossiyalik olim V.I.Seleznev tomonidan esa, kadrlar tayyorlashda faqat texnik jihatlar emas, balki insoniy-professional jihatlar ham muhim, deya fikr bildirilgan [7]. Albatta, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki ishlar organlari kadrlarining jangovar va kasbiy fazilatlarini rivojlantirishda sohani faqat moddiy-texnik imkoniyatini boyitish kifoya emas. Balki, kadrlaning subyektiv jihatlar ham muhim o'rin egallaydi.

G'arb mamlakatlarida so'nggi paytlarda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning jangovar sifatleri, psixofiziologik barqarorligi va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi intensiv rivojlanmoqda. Xususan, zamonaviy xavfsizlik sharoitida xodimlardan yuqori darajadagi ruhiy tayyorgarlik, stress holatlarida o'zini boshqara olish, fiziologik ko'rsatkichlarni nazorat qila olish qobiliyati talab qilinadi. Shu jihatdan qaraganda, biofidbek (biofeedback) texnologiyalarining qo'llanilishi katta ahamiyatga ega.

Biofidbek texnologiyasi [8] insonning fiziologik jarayonlarini — yurak urish tezligi, nafas olish ritmi, mushaklar tarangligi, miya to'lqinlari faolligi kabi ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa xodimga o'zining holatini anglash, uni boshqarish hamda stress, xavotir yoki qo'rquv holatlarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar mashg'ulot jarayonlarini individuallashtirishga, xodimlarning ruhiy-psixologik holatini obyektiv baholashga va ularning jangovar tayyorgarlik sifatini aniq mezonlar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar ichki ishlar organi xodimining eksrremal vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakatlanishi uchun mavjud bo'lgan fiziologik muammolarni aniqlashga



va ularni bartaraf etishga yordam beradi. Hozirgi kunda ushbu amaliyot Mayami politsiyasi [9] hamda Islandiya politsiyasi [10] tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, hozirda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish dolzarb masaladir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ichki ishlar organlari xodimlari ayrim holatlarda kuch ishlatilmaydigan usullar hamda jismoniy kuch ishlatish o'rtasidagi tanlovda qiyinchilikka duch kelmoqdalar. Ushbu muammo global xarakterga ega bo'lib, soha mutasaddilarini ham chuqur o'ylagan, tizimli islohotlarni amalga oshirishga undamoqda. Masalan, ICAT (Integrating Communications, Assessment, and Tactics) "Muloqot, baholash va taktik harakatlarni integratsiyalash (yagona tizimga birlashtirish) dasturi"ning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi hozirda o'zining samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu dastur ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarini murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorlash maqsadida yaratilgan [11]. ICAT odatda tezkor javob beruvchi politsiya xodimlariga mo'ljallangan bo'lib, ularni inson omiliga, psixologik jihatlarga e'tibor berish, voqea oldidan muloqot orqali tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu dasturdan asosiy maqsad – ichki ishlar organlari xodimlariga kuch ishlatish ehtiyojidan avval imkon qadar muloqot, vaziyatni keskinligini kamaytirish usullaridan foydalanish orqali ham xodim xavfsizligini, ham fuqarolarning Zarar ko'rishini kamaytirishdan iboratdir. AQShning Luizvill, Kentukki kabi shaharlarida ICAT treningi joriy etilgach, kuch ishlatish voqealari 28%ga kamaygan, fuqarolarning jarohatlanish holatlari 26%, xodimlar jarohatlanishi 36%ga kamaygani aniqlangan [12]. Bundan kelib chiqqan holda, ICAT modeli muloqotni kuch ishlatish o'rniga qo'llaniluvchi vosita sifatida ko'rish mumkin va muloqot ko'nikmalarini yaxshilash kuch ishlatish ehtimolini kamaytirishi mumkin degan nazariy bog'liqlik mavjud, deb ifodalash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ilm-fan yutuqlariga tayangan holda tashkil etish, fuqarolarning hayoti, qadr-qimmatini va mol-mulkini kibermakonda ishonchli himoya qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar asosida samarali metodikalar ishlab chiqilayotganini alohida ta'kidlash lozim [13].

Biroq, zamonaviy ichki ishlar organlari xodimlarining jangovar va kasbiy tayyorgarligida ayrim kamchiliklarni ham sanab o'tish o'rinlidir. Hozirda ichki ishlar organlari jangovar va jismoniy tayyorgarligida mashqlar ko'proq an'anaviy xarakterga ega va shu bilan nazariy bilimlar bilan chegaralanmoqda. Natijada xodimlarning stressga bardoshlilik, diqqatni jamlash, hissiyotlarni boshqarish kabi muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada ilmiy yondashuv asosida amalga oshmayapti. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlari tizimida g'arb mamlakatlaridek biofidbek texnologiyalarni joriy etish orqali mazkur muammo o'z yechimini topishi mumkin.

Shuningdek, muloqot yoki jismoniy kuch ishlatishni tanlashda qaror qabul qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelayotgan xodimlar uchun ICAT dasturini ichki ishlar organlari faoliyatiga tatbiq etish orqali ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarishimiz mumkin. Zero, Prezidentimiz



ta'kidlaganlaridek, "Ichki ishlar tizimidagi islohotlarimizning amaliy natijasini sohaning har bir xodimi, birinchi navbatda, xalqimiz o'zining kundalik hayotida sezishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz".

Xulosa qilib aytganda, Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash tizimida psixofiziologik barqarorlik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy xavfsizlik siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, biofidbek texnologiyasi xodimning stress holatlarida o'zini boshqarish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ilmiy asosda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ICAT modeli – muloqot, baholash va taktik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali kuch ishlatish ehtimolini kamaytiruvchi samarali trening tizimi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston ichki ishlar organlari kadrlar tayyorlash amaliyotiga moslashtirish xodimlarning kasbiy yetukligi, ruhiy barqarorligi va fuqarolar bilan o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;
2. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.train-de-trainer.org/wp-content/uploads/2024/06/s10484-024-09644-3-1.pdf> (murojaat qilingan sana 02.10.2025);
3. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/33776830/> (murojaat qilingan sana 02.10.2025);
4. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.standart.uz/news/view?id=1246> (murojaat qilingan sana 03.10.2025);
5. 2017-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3413-son Farmoni;
6. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://lawtheses.com/sovremennaya-sistema-podgotovki-kadrov-organov-vnutrennih-del/> (murojaat qilingan sana 04.10.2025);
7. Elektron resurs – Rejim kirish: https://www.researchgate.net/publication/359701868_Training_of_police_officers_in_Russia_review_of_the_2010_-_2020_professional_training_programs (murojaat qilingan sana 04.10.2025);
8. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.forcescience.com/2024/10/can-biofeedback-tools-enhance-law-enforcement-performance/> (murojaat qilingan sana 04.10.2025);
9. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.instagram.com/reel/C-dAyGfR7Lj/> (murojaat qilingan sana 05.10.2025);
10. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/39463192/> (murojaat qilingan sana 05.10.2025);
11. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.policeforum.org/trainingguide> ? (murojaat qilingan sana 05.10.2025);



12. Elektron resurs – Rejim kirish: [https://www.policeforum.org/icat-training-guide?/\(murojaat qilingan sana 06.10.2025\)](https://www.policeforum.org/icat-training-guide?/(murojaat+qilingan+sana+06.10.2025)));
13. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ichki-ishlar-organlari-khodimlari-va-fakhrijlariga-tabrigi/> (murojaat qilingan sana 06.10.2025).